



TIJORAT BANKLARI RESURS (KREDIT VA INVESTITSION) POTENSIALINI BAHOLASH METODLARI

METHODS FOR ASSESSING THE RESOURCE (CREDIT AND INVESTMENT) POTENTIAL OF COMMERCIAL BANKS

**¹Raxmanov Ilxom
Xurramovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrası
professori v.b. **E-mail:** raxmanov.ilxom@mail.ru

Annotatsiya Annotation

Uzb. – Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarining resurs (kredit va investitsion) potensialini baholashda qo'llaniladigan iqtisodiy-statistik modellar yoritilgan. Shuningdek, tijorat banklari investitsion potensialini baholashda qo'llaniladigan koeffitsientlar qatoriga qo'shimcha ko'rsatkichlarni kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, resurs bazasini diversifikatsiya qilish hamda investitsion faoliyat samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Eng. - This article presents economic and statistical models for assessing the resource (credit and investment) potential of commercial banks. In addition, it develops practical recommendations for introducing supplementary indicators into the set of coefficients used to evaluate the investment potential of commercial banks. These recommendations are aimed at enhancing financial stability, diversifying the resource base, and improving the efficiency of investment activities.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ kredit potentsiali, investitsion potentsial, potentsial mijozlar, depozit multiplikatori, kredit ekspansiyasi, birlamchi zaxiralar, ikkilamchi zaxiralar, bazaviy depozitlar, likvid aktivlar, aylanma aktivlar, taqsimlanmagan foyda, sof foyda, kapital, rentabellik, xarajat, daromad.
❖ credit potential, investment potential, potential clients, deposit multiplier, credit expansion, primary reserves, secondary reserves, core deposits, liquid assets, current assets, retained earnings, net profit, capital, profitability, expenses, and income.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tijorat banki mustaqil ravishda resurslarni jalb etish va ularni joylashtirish bo'yicha maqbul yo'llarni izlash va foyda olishga harakat qiladi. Tijorat banklari resurs bazasining mustahkamligi nafaqat bankning qiziqishlari doirasida, balki aksioner va omonatchilarning ham qiziqishlari doirasida bo'ladi.

Pul-kredit siyosati va Bazel standarti talablarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlarining bo'sh pul mablag'lari hisobiga shakllantirilgan

resurslarning mustahkamligini ta'minlashni taqozo etmoqda. Banklar ushbu bo'sh pul mablag'larini foyda keltiruvchi harakatdagi aktivlarga aylantirib joylashtiradi. Shu bois, banklar tomonidan resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish bozor iqtisodiyoti o'sishini hamda rivojlanishini ta'minlovchi hal etuvchi faktorlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi

to'g'risida"gi PF-5992-son Farmonida 2025-yilda depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbatini 50-60 foiz hamda depozitlarning YaIMga nisbati 25-27 foiz darajasiga yetkazishning maqsadlik ko'rsatkichlari alohida ko'rsatib o'tilgan [1].

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozitlari va kapitali miqdorining yillar mobaynida o'sish tendensiyasiga ega ekanligi, shuningdek, banklarimiz kapitalining adekvatligi darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan talablardan yuqori bo'lsada tijorat banklarining resurs potensialini mustahkamlash bilan bog'liq yechimini topishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Nazariy jihatdan olganda bir bank tomonidan depozitning jalb qilinishi, uning kredit resursini shakllantiradi va kredit tarzida beriladi, shuningdek boshqa bankda yana depozit shaklida qaytib, yana mazkur bankning kredit resursini shakllantirib, kredit tarzida berilib boradi. Bu holat qayta-qayta yana boshqa banklar bilan amaliyoti bilan bog'lanib boradi. Bu jarayon depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasini anglatadi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Rodjer Leroy Miller va Devid D. Van-Xuzlarning asarlarida depozit multiplikatorini aniqlashda asosiy e'tibor transaksion depozitlarga qaratilgan.

Ularning fikricha, transaksion depozitlar - pullar yaratilishining yagona shakli bo'lib, depozit multiplikatorini pul multiplikatori sifatida ham atash mumkinligini qayd etib o'tadilar [2].

Shuningdek, ular depozit multiplikatorini rezervlar o'zgargan sharoitda bank tizimidagi umumiy depozitlar miqdorining o'zgarishini hisoblashdagi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi - deb ko'rsatib o'tadilar.

Bunga misol qilib, quyidagilarni keltirib o'tadi. Agar, FRT (Federal rezerv tizimi) o'z rezervlari miqdorini 100 000 AQSh dollariga

oshirsa, talab etilgan rezerv nomasi 10%(0,10)ga teng bo'lgan sharoitda quyidagilarga erishiladi:

$$1/0,10 * 100\ 000 = 10 * 100\ 000 = 1\ 000\ 000\ \text{dollar}.$$

Bu misolda pul multiplikatori $10:1 / 0,10 = 10$ ga teng [2].

Bugungi kunda tijorat banklari investitsion potensialini baholashning xalqaro tan olingan metodlari ham mavjud emas. Mavjud yondashuvlar banklar investitsion potensialiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni va uni oshirish yo'llarini aniqlash imkonini bermasligi mumkin. Bu borada olib borilgan eng muvaffaqiyatli tadqiqotlar qatorida Dun I.V. tomonidan taklif etilgan tijorat banklari investitsion potensialini baholash koeffitsientini hisoblash mumkin [3].

Mazkur koeffitsient faqatgina banklar resurs bazasining tarkibi va tuzilishini emas, balki uning umumiy moliyaviy holatini ham o'zida aks ettiradi. Koeffitsientning matematik jihatdan ifodalanishi quyidagicha:

$$I_p = \sum_{i=1}^N (a_i > K_i)$$

Bunda:

I_p - tijorat banki investitsion potensial;

a_i - vaznli koeffitsiyentlar;

K_i - moliyaviy koeffitsientlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tijorat banklari kredit potensialini baholashda iqtisodiy-statistik metodlar va tijorat banklari investitsion potensialni baholashning moliyaviy koeffitsientlar usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat bankining umumiy likvidliligi Markaziy bankning majburiy zaxiralash me'yori va banklar tomonidan mustaqil tashkil etilgan birlamchi va ikkilamchi zaxiralarga bog'liqdir. Tijorat banklari likvidlilik va rentabellikdan kelib chiqib, minimal darajada likvidlilik zaxirasini yaratishga va maksimal kredit potensialini ta'minlashga harakat qiladi.

Xalqaro tajribaga asosan, birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbatini 5-10 foiz va ikkilamchi zaxiralarning depozitlarga nisbatini 10-15 foiz darajasida ta'minlash optimal hisoblanadi.

Birlamchi zaxiralar bank likvidligining asosiy manbai hisoblanadi. U daromad keltirmaydigan va nol yoki minimal riskka ega bo'lgan mutlaq likvid aktivlardan iborat bo'ladi.

Ikkilamchi zaxiralarga bankning qarz majburiyatlarini minimal kechikish va qiymatini yo'qotish riski past bo'lgan naqd pul yoki to'lov vositasiga aylantirilishi mumkin bo'lgan kichik daromadga ega yuqori likvidli aktivlar kiradi. Ikkilamchi zaxiralarning maqsadi birlamchi zaxiralarni to'ldirish manbai bo'lib xizmat qilishidir.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamiz tijorat banklarida birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbati darajasiga baho beramiz.

O'zbekiston tijorat banklarida birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbati ko'rsatkichi yillar mobaynida kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 01.01.2025-yilda mazkur ko'rsatkich 01.01.2017-yilga nisbatan 16,4 foizga kamaygan. Buning asosiy sababini depozit miqdorining birlamchi zaxiralarga nisbatan 3,8 barobar ko'p o'sganligi bilan izohlash mumkin. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbatan ko'rsatkichi optimal nisbatdan qariyb ikki barobar yuqori sanaladi.

1-jadval

O'zbekistonda tijorat banklari birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbati [4]

Yillar	Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari, mlrd. so'm	Markaziy bankdagi mablag'lar, mlrd. so'm	Birlamchi zaxiralar, mlrd. so'm	Depozitlar, mlrd. so'm	Birlamchi zaxiralarning depozitlarga nisbati, % hisobida
1	2	3	4 (2+3)	5	6 (4/5)
01.01.2017	1335,9	11957,8	13293,7	37183,2	35,8
01.01.2018	4840,9	14909,1	19750,0	59578,7	33,1
01.01.2019	5269,3	11428,8	16698,1	70001,4	23,9
01.01.2020	6553,2	14769,0	21322,2	91009,0	23,4
01.01.2021	9734,6	18851,4	28586,1	114746,9	24,9
01.01.2022	10686,3	31514,6	42200,9	156189,8	27,0
01.01.2023	19309,1	36592,1	55901,2	216737,5	25,8
01.01.2024	20201,8	33228,0	53429,8	241686,6	22,1
01.01.2025	25154,3	34511,8	59666,1	308692,3	19,3

Umuman olganda, mamlakatimizda bosqichma-bosqich tarzda Markaziy bank tomonidan majburiy zaxiralash me'yorlaridan voz kechish siyosatini olib borish kerak deb hisoblaymiz. Ayniqsa, bugungi kunda yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari bo'yicha majburiy zaxiralash me'yori (2025-yil 1-apreldan 10,5 foiz) juda yuqori sanaladi.

Fiat pullar sharoitida Markaziy banklar uchun pul massasini jilovlashning yo'llari va usullari bugungi kunda juda ko'plab topiladi.

Shuningdek, tijorat banklari kredit potensialiga ikkilamchi zaxiralar hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obliitsiyalar hajmi ham bevosita ta'sir qiladi. 2023-yilda Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obliitsiyalarning depozitlarga nisbati 10,6 foiz va 2024-yilda mazkur ko'rsatkich 5,7 foizni tashkil etgan [4].

Kredit potensialini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu - bank kapitalining hajmidir, chunki majburiy iqtisodiy normativlarning asosiy qismi unga bog'liq. O'zbekistonda banklar kapitalining monandligini hisoblashda K1, K2, K3 va K4 kabi 4 ta iqtisodiy normativlardan foydalaniladi.

Kredit potensialini baholashning eng keng tarqalgan usullaridan biri bank mijozlari to'g'risida joriy hisobvaraqdagi qoldiq dispersiyasi va hisobvaraqdagi o'rtacha qoldiq kabi ma'lumotlarga asoslanib, ularni bir nechta mezonlarga ko'ra guruhlashdir. Natijalarga erishish uchun doimiy statistik ma'lumotlar qatoridan yoki reprezentativlikni ta'minlaydigan tanlanmadan foydalanish kerak bo'ladi. Masalan, bank mijozlari qoldiq dispersiyasi bo'yicha guruhlariga bo'linadi: yuqori (variatsiya koeffitsiyenti - 200% dan yuqori), o'rtachadan yuqori (100-200%), o'rtacha (50-100%), past (50% dan kam). O'rtacha qoldiqning kattaligiga ko'ra, guruhlar shakllantiriladi. Keyingi bosqichda dispersiya va o'rtacha qoldiq o'rtasidagi bog'liqlik tahlil

qilinadi va shu asnoda, bir nechta mijozlar guruhlari tanlab olinadi. So'ngra, tanlab olingan guruhlarining har biri uchun likvidlik zaxirasining chegarasi belgilanadi. Likvidlik zaxirasining umumiy miqdori alohila likvidlik zaxirasi limitlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Guruhlash metodi kredit potensialini aniq aniqlash imkonini beradi, ammo amaliy nuqtayi nazardan bu ko'p mehnat talab qiladi [5].

Kredit potensialidan foydalanganda tijorat banklari kredit va foiz stavkalari risklariga duch keladi. Kredit risklarini baholashda qarz oluvchilarni moliyaviy ishonchiligi asosida tanlashning eng keng tarqalgan usullaridan biri CART va Z-Score modellaridir [6].

Shuningdek, banklar kredit potensialini baholashda bir qator iqtisodiy-statistik metodlardan ham foydalaniladi.

Bularni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali mazkur metodlarni ifodalashga harakat qilamiz.

2-jadval

Tijorat banklari kredit potensialini baholovchi iqtisodiy-statistik metodlar

Nº	Metod	Formula	Iqtisodiy ma'nosi
1.	Mablag'larning qo'nimlilik darajasi	$MQD = (Q_o - Q_b) / K * 100$	Q_o - davr oxiridagi mablag'lar qoldig'i; Q_b - davr boshidagi mablag'lar qoldig'i; K - mablag'lar kirimi.
2.	O'rtacha saqlash muddati	$O'SM = Q_{o'rt} / B * K$	$Q_{o'rt}$ - ma'lum davrdagi o'rtacha qoldiq; V - ma'lum davrda pul mablag'larini olish yoki o'tkazish; K - ma'lum davrdagi kunlar soni.
3.	Talab qilib olinguncha depozitlarning barqaror qoldig'i	$TQODBQ = Q_{o'rt} / D$	$Q_{o'rt}$ - talab qilib olinguncha depozitlarning ma'lum davridagi o'rtacha qoldig'i; D - ma'lum davrdagi mablag'larning kirimi.
4.	Mijozlarning rejalashtirilgan daromadidan rejalashtirilgan davrda muddatli depozitga qo'yilishi mumkin bo'lgan mablag'lar	$MRMD = T_r * Q_{o'rt} / T_h * 100$	T_r - rejalashtirilgan davrda mijozlarning joriy hisobvarag'iga kelishi kutilayotgan tushumlar; $Q_{o'rt}$ - o'tgan yilning mos davri uchun mijozning joriy hisobraqamidagi mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i; T_h - o'tgan yilning mos davri uchun mijozning joriy hisobvarag'iga haqiqiy tushumlar.
5.	Banklarning yirik majburiyatlarga bog'liqligi	$BMB = (Y_m - V_i) / (D_a - V_i)$	Y_m - yirik majburiyatlar; V_i - vaqtinchalik investitsiyalar; D_a - daromad keltiruvchi aktivlar.

6.	Jalb qilingan mablag'larning barqaror qismi	$JMBQ=100\%-X$	100% - jalb qilingan mablag'larning umumiy hajmi; X - jalb qilingan mablag'lar nobarqaror qismining ulushi (o'rtacha xronologik hisoblanadi), foiz hisobida
7.	Depozit bazasining barqarorligi	$DBB=B_d/M_d$	B_d - bazaviy (asosiy) depozitlar; M_d - muddatli depozitlar.
8.	Joriy passivlarning barqarorlik va aylanma koeffitsenti	$JP=100-(\sigma X/X_{ort}) \cdot 100$	σX - joriy passivlar summasidan standart og'ish; X_{ort} - tahlil qilinayotgan davr uchun joriy passivlarning o'rtacha qiymati, o'rtacha tortilgan formula bo'yicha aniqlanadi.
9.	Kredit potensialining transformatsiya koeffitsenti	$KPTK=(R/S) \cdot R \cdot 100$	R - qisqa muddatli resurslar; S - qisqa muddatli ssudalar.
10.	Mintaqaning kredit potentsiali	$MKP= M_k/M_p$	M_k - mintaq bo'yicha berilgan kreditlarning o'rtacha miqdori; M_p - mintaq kredit potentsialining prognoz miqdori.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, banklar o'zlarining kredit potentsialidan to'liq foydalanishlari uchun kreditlar bo'yicha limitlarni hisoblashning aniq usullaridan foydalanish zarur bo'ladi. Ekspert baholash asosida limitlarni belgilash kredit limitining asossiz kam yoki ortiqcha baholanishiga olib kelishi mumkin. Limitning kam baholanishi bankning kredit resurslaridan to'liq foydalana olmasligi va shunga mos ravishda foizli daromadlarni to'liq ololmasligini bildiradi. Kredit potentsialining mumkin bo'lgan eng yuqori rentabelligi rentabellik va riskning optimal kombinatsiyasi bilan, ya'ni maksimal rentabellik va minimal riskga erishilganda erishiladi [7].

Bugungi kunda zamonaviy iqtisodchilar o'rtasida "tijorat banklari investitsion potentsiali" xususidagi qarashlarda yagona konsensus yo'q.

Tijorat banklari investitsion potentsiali xususida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi o'laroq shuni aytish mumkinki, tijorat banklari investitsion potentsiali keng ma'noda, investitsion resurslarni investitsion maqsadlar hamda investitsion-bank xizmatlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan imkoniyatlarni anglatadi, tor ma'noda jami o'z, jalb qilingan va qarz mablag'larining investitsion maqsadlar uchun yo'naltirilishiga aytiladi. Resurslarni

investitsion faoliyatga jalb qilishning muhim kriteriyasi uning muddati bilan bog'liqdir. Bunda odatda, bir yildan ortiq muddatga safarbar qilingan mablag'lar tushuniladi. Tijorat banklari investitsion potentsialining elementlari bo'lib, ustav kapitali, yuridik va jismoniy shaxslar depozitlarining barqaror qismi, shuningdek yuridik shaxslar hisobraqamlaridagi qoldiq va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan jalb qilingan mablag'lar hisoblanadi.

Investitsion potentsialni shakllantirish va realizatsiya qilishning muhim xususiyatlarini inobatga olish kerak bo'ladi.

1). Investitsion potentsialni shakllantirish jarayoni uchun quyidagilar xosdir:

- investitsion resurslar tarkibida "qimmat" resurslar sezilarli ulushining mavjudligi: kredit tashkilotlari mablag'lari va obligatsiyalar;

- investitsion resurslarning muddatlar bo'yicha taqsimlanishi, odatda asosiy qismi 3 yilgacha jalb qilingan bo'lishi;

- investitsion resurslar tarkibida to'langan majburiyatlar ulushining sezilarli darajada oshishi.

2). Investitsion potentsialni realizatsiya qilish jarayoni uchun quyidagilar xosdir:

- investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar ulushining yuqoriligi;

- mablag'larni joylashtirishning samarasizligi.

Tijorat banklari investitsion potensialini hisoblashning moliyaviy koeffitsientlarini

quyidagi jadval ma'lumotlari orqali keltirib o'tamiz.

3-jadval

Tijorat banklari investitsion potentsiali koeffitsientlari [3]

Koeffitsent	Iqtisodiy ma'nosi	Vazni
1. Ishonchlilik koeffitsienti $K_i = K_{it}$		
$K_{it} = \text{Kapital/Aylanma aktivlar}$	Riskli qo'yilmalarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatadi, ular qaytarilmagan taqdirda zararlarni qoplash uchun foydalaniladi.	0,2
2. Likvidlik koeffitsientlari $K_l = K_{l1} * 0,35 + K_{l2} * 0,35 + K_{l3} * 0,3$		
$K_{l1} = \text{Yuqori likvidli aktivlar/(talab qilib olinguncha depozitlar + hisob-kitob va joriy hisobraqamlardagi mablag'lar)}$	Majburiyatlarning qanchalik qismi darhol talab bo'lishi bilan oq to'lanishini ko'rsatadi.	0,35
$K_{l2} = \text{Likvid aktivlar/jami majburiyatlar}$	Bankning kreditorlar talablarini belgilangan muddatlarda qondirish qobiliyatini tavsiflaydi.	0,35
$K_{l3} = \text{Yuqori likvidli aktivlar/Aylanma aktivlar}$	Aylanma aktivlarning qanchalik qismi yuqori likvidli instrumentlarda mavjudligini ifodalaydi.	0,3
3. Rentabellik koeffitsientlari $K_r = K_{r1} * 0,5 + K_{r2} * 0,5$		
$K_{r1} = \text{Foyda/Kapital}$	O'z mablag'larining samarali joylashtirilganligini ifodalaydi.	0,5
$K_{r2} = \text{Foyda/Aylanma aktivlar}$	Aylanma aktivlarning samaradorligini ifodalaydi.	0,5
4. Uzoq muddatli passivlar ulushi koeffitsienti K_{pu}		
$K_{pu} = \text{Uzoq muddatli passivlar/Balans summasi}$	Bank balansida uzoq muddatli passivlarning ulushini ifodalaydi.	1,0
5. O'sish koeffitsienti K_o		
		0,2

Tijorat banklarida investitsion potensialni shakllantirish va realizatsiya qilish banklar uchun xos bo'lgan bir qator muammolarni aniqlashga ko'maklashadi:

1). Bank moliyaviy holatining qay darajada ekanligi.

2). Qimmatli qog'ozlar va ajratilgan kreditlarning qiymati pasayishidan kutilayotgan zararlarni bo'yicha yetarli miqdorda rezervlar tashkil etish.

3). Barqaror mijozlarning mavjud emasligi muammosi.

Shuningdek, tijorat banklarida investitsion potensialni shakllantirish va realizatsiya qilishning muhim shartlari esa, quyidagilardan iborat:

- bank moliyaviy holatini mustahkamlash;

- resurs bazasini realizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq resurs

bazasining muddatligini oshirish va bir vaqtda investitsion resurslar qiymatini baholab borish;

- mablag'larni kreditlarga joylashtirish ustuvorligiga asoslangan konsepsiya doirasida mablag'larni optimal taqsimlash.

Xulosa va takliflar.

Banklarning kredit potensialini baholashda qiyosiy tahlil, guruhlash va iqtisodiy-statistik usullardan foydalanish va axborot bazasini yaratish muhimdir. Buning uchun quyidagilarni inobatga olish kerak bo'ladi:

- kredit potensialining alohida turlari bo'yicha dinamik qator;

- kredit potensialini uning miqdorlari, muddatlari va mijozlar guruhlari bo'yicha tasniflash;

- kredit potensialining har bir turi bo'yicha barqaror qismni aniqlash;

- kredit potensialining nominal va real qiymati (soliqlar, majburiy zaxiralar me'yorlari va boshqalarni hisobga olgan holda);

- kredit potensialining o'rtacha tortilgan qiymati va h.k.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan kelib chiqib, respublikamiz tijorat banklari kredit potensialini oshirishda mijozlar tarkibini chuqur tahlil etgan holda potensial mijozlar tarkibi va ularning mablag'larini aniqlab olish, aholi omonatlarining salmog'ini oshirish yuzasidan yangi innovatsion bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish hamda banklararo kredit resurslari bozorini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Dun I.V. tomonidan taklif etilgan tijorat banklari investitsion potensialini baholash koeffitsientlari qatorida quyida keltiriladigan ko'rsatkichlarni ham inobatga olish, banklarning investitsion potensialini baholashda yanada aniqroq xulosalarni shakllantiradi:

1). Bank xarajatlarining daromadlarga nisbati ko'rsatkichi (CIR- cost-to-income ratio).

Mazkur ko'rsatkich bank xarajatlarining uning daromadlariga nisbati orqali aniqlanib, bank tizimida mazkur ko'rsatkichning 50-60 foiz bo'lishi sog'lom, 50 foizdan past bo'lishi a'lo deb baholanadi. 60 foizdan yuqori ko'rsatkich bank rentabellik darajasiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan samarasizlikni ifodalaydi.

Bank xarajatlarining daromadlarga nisbati ko'rsatkichi bank sektoridagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, kredit tashkilotining faoliyati samaradorligi haqida tasavvur uyg'otadi. U investorlar va regulyatorlarga bank o'z daromadlariga nisbatan xarajatlarini qanchalik samarali boshqarayotgani to'g'risida aniq tasavvurni taqdim etuvchi operatsion samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy tahlil, portfel boshqaruvi yoki bank operatsiyalari bo'yicha mutaxassislar uchun xarajatlarning daromadlarga nisbatini aniqlash

bankning rentabelligi va uzoq muddatli barqarorligini baholash uchun juda muhimdir.

2). Bank taqsimlanmagan foydasining sof foydaga nisbati ko'rsatkichi (Foydani ushlab qolish koeffitsiyenti, release ratio).

Mazkur ko'rsatkich taqsimlanmagan foydaning sof foydaga nisbati orqali aniqlanadi. Bu koeffitsient aksiyadorlarga dividend to'lanmasdan, biznesni rivojlantirish uchun bank tomonidan saqlanadigan foydaning ma'lum qismidir. Shuningdek, mazkur koeffitsient bank o'z faoliyatiga qayta investitsiya qilish uchun qancha pul ushlab qolishini aniqlashga yordam beradi. Rivojlanayotgan banklar odatda taqsimlanmagan foydaning sof foydaga nisbatining yuqori ko'rsatkichiga ega bo'lib, ular o'z faoliyatlari o'sishni ta'minlash uchun foydani bankka qaytaradilar. Mazkur ko'rsatkich moliyaviy va hisobot davlarida o'zgarib burishi mumkin. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichning aniq yuqori va quyi chegaralari bo'yicha tavsiyalar mavjud emas. Bu moliyaviy kompaniyalar va kredit tashkilotlarining faoliyati xususiyatlariga bog'liq.

3). Barqaror o'sish sur'ati ko'rsatkichi (SGR - sustainable growth rate).

Mazkur ko'rsatkich bank kapitali rentabellik (ROE) ko'rsatkichining saqlash koeffitsienti (taqsimlanmagan foyda/sof foyda)ga ko'paytmasi orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich o'z navbatida bankning qarz olmasdan o'sishini moliyalashtirishi mumkin bo'lgan nisbatni anglatadi.

4). Bank kapitali rentabelligining (ROE) rasmiy inflyatsiyani qoplash darajasi.

Bu holat banklar investitsion potensialining samaradorlik ko'rsatkichlariga $ROE > inflyatsiya$ bo'lganda ijobiy, $ROE < inflyatsiya$ bo'lganda salbiy ta'sir qiladi.

5). Banklar tomonidan investitsion potensialdan foydalanish jarayonida mijozlarni tanlashda NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return), PI (Profitability Index), DPP (Discounted Payback Period), PP

(Payback Period) kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tijorat banklarining kredit potensialining asosiy manbasi jalb qilingan mablag'lar hisoblansa, investitsion potensialning asosiy manbasi bu kapitaldir. Shuningdek, tijorat banklari kredit potensialiga ta'sir etuvchi omillar sifatida Markaziy bank asosiy stavkasi, yuqori likvidli aktivlar, zararlarni qoplash bo'yicha tashkil etilgan zaxiralar va boshqalar qayd etilsa, investitsion potensialga asosan sof foydadan

taqsimlanmagan foydaga ajratma, soliq va boshqa shu kabi moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi. Tijorat banklari kredit potentsiali ko'rsatkichlari asosan likvidlikka ko'proq e'tibor qaratsa, investitsion potentsial ko'rsatkichlari esa, asosan barqarorlikni nazarda tutadi.

Xulosa tarzida shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari kredit va investitsion potentsiali o'zida bankning umumiy resurs potentsialini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni (<https://lex.uz/en/docs/4811025>).
2. Роджер Лерой Миллер, Дэвид Д. Ван-Хуз. Современные деньги и банковское дело: Пер. с англ.-М.: ИНФРА-М.-2000-XXIV.-С.360.
3. Дун И.В. роль инвестиционных банков в формировании инвестиционного потенциала Российской банковской системы: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук / науч. Рук. А.В. Бандурин. - М.; 2008.- С.25.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2016-2024 yillik hisobot ma'lumotlari.
5. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка / Г.С. Панова. М.: ИКЦ "ДИС", 1997. - С.464.
6. Основы банковской деятельности (Банковское дело) / Под ред. К.Р. Тагирбекова. - М.: ИНФРА-М, Изд-во «Весь мир», 2003. - С.207.
7. Морсман-младший Э. М. Управление кредитным портфелем.: Пер. с англ. - М.: Алыпина Бизнес Букс, 2004. - С. 41.